



BOSHLANG'ICH TA'LIM FANLARINI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLAR

Alijonova Nazokat Dilmurodjon qizi
Farg'ona Davlat Universiteti magistranti
nazokatalijonova2002@icloud.com
Ilmiy rahbar: **M.Dehqonova**

Annotatsiya: Hozirgi globallashuv sharoitida boshlang'ich ta'limda fanlarni o'qitishda zamonaviy pedagogik metodlar va texnologiyalardan foydalanish ta'lim sifati va samaradorligini oshurmoqda. Ushbu tezisda interaktiv metodlar orqali ta'lim sifatini yaxshilash yo'llari taxlil qilinadi.

Kalit so'zlar: interfaol metodlar, innovatsiya, samaradorlik, ta'lim sifati, dialog, bilim

Annotation: In the current conditions of globalization, the use of modern pedagogical methods and technologies in teaching science in primary education is increasing the quality and effectiveness of education. This thesis analyzes ways to improve the quality of education through interactive methods

Key words: interactive methods, innovation, efficiency, quality of education, dialogue and knowledge

Аннотация: В условиях современной глобализации использование современных педагогических методов и технологий в преподавании предметов в начальном образовании повышает качество и эффективность образования. В этой диссертации анализируются способы улучшения качества образования посредством интерактивных методов.

Ключевые слова: интерактивные методы, инновации, эффективность, качество образования, диалог, знания

Ta'lim tizimida o'quvchilarni bilim olishi birinchi o'rinda turishini hamma yaxshi biladi. Bu bo'yicha Prezidentimizning 2023-yildagi murojaatnomalarida quyidagilar berilgan: "2023 yildan boshlab yurtimizdagi umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida mutlaqo yangicha metodika asosida yaratilgan darsliklar bo'yicha o'qitish yo'lga qo'yiladi." O'qituvchi o'quvchiga har bir yangi bilimni berishda turli xil metodlardan foydalanishi lozim. Hozirgi vaqtda dars jarayonlarida zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish haqida gap borganda yangi innovatsiya lardan, interfaol usullardan foydalanish tushuniladi. Interfaol metodlar bu- o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida faol muloqot va hamkorlik asosida olib boriladigan usullar to'plamidir. "Interfaol" ingliz tilidan olingan so'z bo'lib "o'zaro harakat" degan ma'noni bildiradi.¹ Bu metodlar yordamida

¹ "Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlardan foydalanish" D.SH.Sidiqova (2022)

o‘quvchilar faqat ma‘lumotlarni qabul qiluvchi emas balki faol ishtirokchi bo‘lib, bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida mustaqil fikrlash, murakkab masalalarni osonlik bilan yechish ko‘nikmalarini shakllantiradilar. Interfaollik asosida darsni tashkil etish jarayonida bironta ham o‘quvchi chetda qolmaydi. O‘quvchilar birgalikda ishlashda o‘zlarining shahsiy fikrlarini qo‘shish imkoniga ega bo‘ladilar. O‘zaro bilimlarni, g‘oyalalarni va fikrlarni tengdoshlari bilan almashish jarayoni hosil bo‘ladi. Bunday holatlar o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro samimiylilikni ta‘minlaydi, yangi bilimlarni olish va o‘zlashtirishga havas ortadi. Buning ta‘limiy va tarbiyaviy ahamiyati katta. Interfaol metodlar orqali o‘tiladigan darslarda an‘anaviy usullardan vos kechish degani emas, balki mazmunni o‘zaro faollikda hal eta olishdir. Interfaollik bu faollikdir, ya‘ni o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi o‘zaro muloqoti asosida kechadi. Albatta, har bir ishni qilishdan maqsad bo‘lgani kabi interfaol usullarni ham qo‘llashdan maqsad bo‘ladi. Interfaol usulning bosh maqsadi o‘quv jarayoni uchun eng qulay vaziyat yaratish orqali o‘quvchilarning faol, erkin fikr yuritishga muhit yaratishdir. Bunga misol tariqasida matematika darslari interfaol metodlar orqali tashkillashtirilsa, dars ham qiziqarli, ham mazmunli o‘tadi. Chunki biz bilamizki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari juda o‘yinqaroq bo‘ladilar. Shuning uchun ham darslarni turli qiziqarli metodlardan foydalanib tashkillagan maqsadga muvofiqdir. Misol uchun ”ko‘paytish jadvali”ni ba‘zi o‘quvchilar yod olishda qiynaladilar. Bu vaziyatda interfaol metodlardan foydalanilsa o‘quvchilarni esida qolishi va yod olishlari bir vaqttni o‘zida ham oson, ham qiziqarli bo‘ladi.

Interfaol metodlarning asosiy xususiyatlari quyidagilar:

- 1) Faollik: o‘quvchilar darsga faol jalb qilinadi
- 2) Muloqot: o‘qituvchi va o‘quvchilar, shuningdek asosan o‘quvchilar o‘rtasida dialog va muhokama bo‘ladi.
- 3) Hamkorlik: guruhlarda yoki jamoalarda ishlash orqali o‘rganish
- 4) Qaror qabul qilish: o‘quvchilar mustaqil fikr yuritib, qarorlar qabul qiladilar
- 5) Amaliyotga yo‘naltirilganlik: nazariy bilimlar amaliy mashg‘ulotlar orqali mustahkamlanadi

Shu bilan birga interfaol metodlarni tashkil qilishda quyidagilardan foydalaniladi:²

- juftlikda ishlash;
- kichik guruhlarda ishlash;
- tugallangan gaplar;
- aqliy hujum;
- daraxt yechimi;
- o‘z nomimdan so‘zlayman;
- press metodi;
- munozara;

² “Pedagogika nazariyasi va tarixi” Toshkent-2010 R.Mavlonova, N.vohidova, N.Rahmonqulova

-katta davra;

-akvarium;

Yuqoridagilardan foydalanishda qandaydir bir maqsadni ko‘zda tutib, muammoni keltirib, o‘quvchilarni shu jarayonda ishlashga tayyorlab, uni ma‘lum malakalarga ega bo‘lgan holatlarda qo‘llanilsa, kutilgan natijalarni olish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, interfaol metod va o‘yinlar bir vaqtda bir nechta murakkab masalalarni hal etish imkonini beradi. Budan tashqari o‘quvchilar o‘rtasida muloqot olib borish ko‘nikmalarini rivojlantiradi, ularni jamoa bo‘lib ishlashga, o‘z tengdoshlarini fikrlarini tinglashga o‘rgatadi. Shu bilan birga darslarda interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilardagi asabiy zo‘riqishlarni oldini oladi, shu bilan bir qatorda dars mavzusini tez va oson o‘zlashtirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.Mavlonova, N.Voxidova, N.Rahmonqulova “Pedagogika nazariyasi va tarixi” Toshkent-2010
2. D.SH.Sidiqova “Boshlang‘ich sinflarda interfaol metodlardan foydalanish” (2022)
3. S.A.Imomov “Interfaol metodlar asoslari” (pedagoglar va o‘qituvchilar uchun qo‘llanma)
4. <https://yuz.uz/uz/news/zamonaviy-jamiyat-uchun-zamonaviy-talim>